

AXBOROT-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART SHAROITLARI

Eshpulatova Husniya Mirg‘olib qizi

Jizzax politexnika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, interfaol metodlarni qo'llash hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi kommunikativ hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Axborot-kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, ularning ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Axborot-kommunikativ kompetentlik, pedagogik shart-sharoitlar, raqamli texnologiyalar, ta'lim jarayoni, axborot savodxonligi, kommunikativ ko'nikmalar, innovatsion ta'lim.

Аннотация:

В данной статье с научной, теоретической и практической точек зрения анализируются педагогические условия развития информационно-коммуникативной компетенции. Особое внимание уделяется вопросам эффективного использования информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе, применению интерактивных методов и развитию коммуникативного сотрудничества между преподавателем и учеником. Выявлены факторы, влияющие на формирование информационно-коммуникативной компетенции, и обосновано их воздействие на качество и эффективность обучения. Результаты исследования служат основой для разработки методических рекомендаций по развитию информационно-коммуникативной компетенции в образовательном процессе.

Ключевые слова: Информационно-коммуникативная компетентность, педагогические условия, цифровые технологии, образовательный процесс, информационная грамотность, коммуникативные навыки, инновационное образование.

Abstract:

This article analyzes the pedagogical conditions for the development of information and communicative competence from a scientific, theoretical and practical perspective. Particular attention is paid to the issues of the effective use of information and communication technologies in the educational process, the use of interactive methods, and the development of communicative cooperation between the teacher and the student. The factors influencing the formation of information and communicative competence are identified, and their impact on the quality and effectiveness of education is substantiated. The results of the study serve to develop methodological recommendations for the development of information and communicative competence in the educational process.

Keywords: Information and communicative competence, pedagogical conditions, digital technologies, educational process, information literacy, communicative skills, innovative education.

Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi shaxsdan nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va samarali muloqot qilish kompetentligini ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u pedagogik shart-sharoitlarning to'g'ri tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interfaol metodlarni joriy etish va pedagogik muhitni takomillashtirish orqali o'quvchilarda zamonaviy kompetentliklarni shakllantirish mumkin.

Kishilik jamiyatida insoniyatni muloqot faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insonning shaxsini tavsiflovchi jinsi, yoshi, ta'lim-tarbiyasi, ijtimoiy mavqei, millati, dini va boshqa ko'plab ma'lumotlardan qat'iy nazar, doimo axborotni qabul qiladi, saqlaydi, qayta ishlaydi va uzatadi ya'ni, axborot-kommunikativ faoliyat bilan faol shug'ullanadi. Shundan kelib chiqib, bo'lajak mutaxassislarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratib berish muhim sanaladi.

Bo'lajak mutaxassislarda axborot-kommunikativ kompetentlikni shakllantirish muammolarini o'rganish psixologik-pedagogik, ilmiy adabiyotlarda "muloqot" tushunchasiga berilgan ta'riflarni tahlil qilish va uning mohiyati va tuzilishini aniqlashdan boshlanadi.

"Kommunikativ" atamasining paydo bo'lishi uning o'xshash ekanligidan dalolat beradi. "Kommunikatsiya" atamasi lotincha "communio" dan kelib chiqqan va "umumiy qilaman", "bog'lanaman", "muloqot qilaman" degan ma'nolarni beradi. Bu atamaning umumshtirilgan ilmiy ma'nosi bilan birgalikda ijtimoiy muhitda axborotlar almashishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq ijtimoiy-madaniy ma'no kasb etadi.

Bugungi kunda ushbu atamalar kundalik hayotimizda ham, ilmiy jihatdan ham teng kuchli sifatida ko‘proq foydalanilib kelinmoqda. Ammo, “kommunikatsiya” axborot nazariyalari va kommunikatsiyalari sohasida mustahkam o‘rnashib olganligi sababli, xabar yoki axborotni oddiy almashish va uzatishga aylantirildi. Kommunikatsiyaning to‘liq tavsifiga axborot-kommunikativ bosqich (axborot almashish uchun maqsad va ehtiyojlar shakllanadi va ularni amalga oshirish yo‘llari belgilanadi), kommunikatsiyaning o‘zi (xabar yaratish, uzatish va qabul qilish) va kommunikatsiyadan keyingi bosqich (muloqotning oqibatlari yoki ta’siri namoyon bo‘ladi va hisobot yaratiladi) kiradi.

“Kommunikatsiya-muloqot” muammosiga ko‘pchilik olimlarning yondashuvi bir-biriga yaqin. Falsafiy lug‘atga murojaat qiladigan bo‘lsak, muloqot bu kommunikatsiya, axborot, fikr, g‘oya va boshqalarning almashishi, ma’lum bir mazmuni bir ongdan (jamoaviy yoki individual bo‘lishi mumkin) ikkinchi bir onga moddiy tashuvchilarga belgilangan belgilar orqali o‘tkazish jarayonidir. Shuningdek, har qanday muloqot kommunikatsiya (adabiyot, san’at, ilmiy, kundalik sohalar va sanoat munosabatlaridagi muloqot) ijtimoiy tuzilmani o‘zida ifodalovchi va undagi bog‘lovchi vazifani bajaruvchi ijtimoiy jarayondir. Aksariyat olimlarning fikriga ko‘ra “Kommunikatsiya” va “muloqot” tushunchalari o‘rtasida o‘xshashlikni o‘rganish inson muloqoti darajasida muayyan madaniyatda ijtimoiy rivojlangan va doimiy bo‘lgan turli ishorali tizimlar aloqa vositasiga aylanadi. Asosiy aloqa vositalari til (og‘zaki va yozma nutq), juftlik va ekstra-lingvistik kommunikatsiyalar tizimi (intonatsiya, pauzalar) va optik-kinetik belgilar (imo-ishoralar, yuz ifodalari, pantomimika) hamda muloqot uchun foydalaniladigan boshqa belgilar tizimlaridir.

Kelajakda professional ta’lim uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi bo‘lajak o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash va axborot-kommunikativ kompetentligi tizimi to‘liq ishlashi uchun quyidagi tashkiliy va pedagogik sharoitlar ta’minlangan taqdirdagina samarali bo‘lishi mumkin deb hisoblaymiz. Bular quyidagilardan iborat:

Tashkiliy shart-sharoitlar: AKT sohasidagi bo‘lajak muhandislarni tayyorlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini rivojlantirish tendensiyalarini hisobga olgan holda, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

- kelajakda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi muhandis-pedagoglarni tayyorlash uchun yangicha axborot va ta’lim muhitini yaratish;
- talabalarga bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchisi sifatida kasbiy tayyorgarlikni individuallashtirish uchun shaxsiy elektron muhitni yaratish imkoniyatini berish;
- kasbiy faoliyatga tayyorlashning yuqori sifatli moddiy-texnik bazasini ta’minlash;
- ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish;
- ish beruvchilar bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatish;

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan pedagogik va ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish va o‘tkazish

Pedagogik shart-sharoitlar: bo‘lajak professional ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirish jarayonida uslubiy yondashuvlar va didaktik tamoyillarni ishlab chiqish;

- fan sohasini o‘rganish uchun motivatsiya tizimini rivojlantirish;
- bo‘lajak professional ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari tarkibiga kiritilgan kompetensiya guruhlarini aniqlash va doimiy monitoring qilib borish;
- bo‘lajak professional ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi mazmunini tanlash;
- bo‘lajak professional ta‘lim o‘qituvchilarini sifatli tayyorlash uchun o‘quv materiallari va axborot resurslarini ishlab chiqish va doimiy ravishda yangilab borish;
- bo‘lajak professional ta‘lim o‘qituvchilarini axborot-kommunikativ kompetentligini shakllantirish uchun maqsadga muvofiq ravishda tegishli shakllar, usullar, vositalar, metodik yondashuvlar va o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish;
- talabalarni o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z-o‘zini o‘qitish va o‘zini takomillashtirishga jalb qilish;

Yuqoridagilarga asoslanib, shuningdek, o‘rganilgan adabiyotlarni nazariy tahlili bo‘lajak mutaxassisning kommunikativ kompetentligini ma‘lum shaxsiy va kommunikativ sifatlar va kommunikativ malakalar majmui sifatida belgilash mumkin. Uning tarkibida biz to‘rtta komponentni ajratamiz: axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislar orasida kommunikativ kompetentlikni shakllantiruvchi kognitiv, interaktiv, faoliyatli va reflektiv komponentlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduquddusov O. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: Fan, 2005, - 157 b.
2. Ashurov A.A Kommunikativ kompetensiya tushunchasi va uning mazmunmohiyati//O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2020.— No 1(30). — S.76–83.
3. Hamidov J. A. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish texnologiyasi. Monografiya.-T.: “Sano-standart”. 2017.-160 b.
4. Himmataliev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (“Texnika oliy ta‘lim muassalarining kasb-ta‘limi” yo‘nalishlari misolida): ped. fan. bo‘y. dok. (DSs) diss. – T.: 2018.
5. Ashurova S.Yu. Yengil sanoat sohalari bo‘yicha kichik mutaxassislar tayyorlashda maxsus fanlarni modulli o‘qitishning uslubiy asoslari (“Tikuvchilik ishlab chiqarish” yo‘nalishi misolida): Dis. ped. fan. nom. – T.: 2004. – 150 b.

<https://innovateconferences.org>

6. Babadjonov S.S. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi («Informatika va axborot texnologiyalari» fanini o'qitish misolida)» p.f.b.f.d (Phd) diss... –T.: 2016. – B.124.

7. Байденко В.И. Компетенции в профессиональном образовании (к освоению компетентностного подхода) // Высшее образование в России. – М.: 2004. – №11. – С. 3-13.